

RAUF PARFI SHE'RIYATI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISHDA AVTOMATIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISH

Rayimjonova Matluba Maxamadkarimovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

rayimjonova89@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15729981>

Annotatsiya: Ushbu maqolada she'riy matnlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilish usullari haqida to'xtalib o'tilgan. She'rlarning lingvopoetik tizimini avtomatik tarzda aniqlash va tasnif etish o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: leksik-semantik tahlil, lingvopoetik tahlil, qidiruv tizimi, kalit so'z, konkordans.

USING AUTOMATIC ANALYSIS METHODS IN RESEARCHING THE LEXICAL- SEMANTIC FEATURES OF RAUF PARFI'S POETRY

Rayimjonova Matluba Makhamadkarimovna

PhD student Tashkent State University of Uzbek Language and

Literature named after Alisher Navoi

Annotation: This article discusses the methods of lexical-semantic analysis of poetic texts. It explores the role of automatically identifying and classifying the lingvo-poetic system of poems.

Keywords: lexical-semantic analysis, lingvo-poetic analysis, search system, keyword, concordance.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ АВТОМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В ИССЛЕДОВАНИИ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПОЭЗИИ РАУФ ПАРФИ

Райимжонова Матлюба Махамадкаримовна

Научный сотрудник Ташкентского государственного университета узбекского
языка и литературы имени Алишера Навои

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы лексико-семантического анализа поэтических текстов. Обсуждается роль автоматического определения и классификации лингвопоэтической системы стихотворений.

Ключевые слова: лексико-семантический анализ, лингвопоэтический анализ, поисковая система, ключевое слово, конкорданс.

O'zbek tilshunosligida badiiy asarlar matni tahlili bilan bog'liq muammolarni yoritishda til imkoniyatlarining rivojlanish, shakllanish omillari, leksik-semantik, milliy-mental xususiyatlarini ochib berishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va

vulgar soʻzlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi¹.

Sheʼriyat adabiyotda juda oʻziga xos janrdir, chunki unga xos boʻlgan xususiyat sheʼriy asarning tilidir. Sheʼrlar, odatda, hikoya va boshqa adabiy janrlarga qaraganda qisqaroq boʻladi, lekin ular qoʻllanilgan soʻzlar sonidan koʻproq narsani aytib beradi². Sheʼrlarning mazmuni ulardagi tayanch soʻzlarning maʼnosini ochish va kengaytirishdan kelib chiqadi. Sheʼriy matnlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilish boʻyicha jahon va oʻzbek tilshunosligida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jahon adabiy-lingvistik tadqiqotlarida sheʼrlarning leksik-semantik tahlili ikki asosiy yoʻnalishda rivoj topgan:

1. Nazariy-kognitiv yondashuv — R. Jakobson, M. Riffaterre, G. Leech, M.A.K. Halliday kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bu yondashuvda sheʼriy matndagi soʻzlarning **ichki semantik tuzilishi, metafora va obrazlar tizimi, poetik uslub, stilistik deviatsiyalar** singari hodisalar asosiy tahlil obyekti boʻladi. Bu yondashuvda tilga **fikr va his-tuygʻularni ifodalovchi kognitiv vosita**, sheʼrga esa **maʼno yaratish modeli** sifatida qaraladi³.

2. Raqamli-korpus yondashuvi — bu yoʻnalish zamonaviy texnologiyalar, sunʼiy intellekt va statistik lingvistika yutuqlariga tayangan holda shakllandi. Z. Goodarzi, Fang & Lo, M.Jacobs, P.S.Baranovskiy kabi tadqiqotchilar poetik matnlarni **millionlab soʻzli korpuslar** asosida **semantik tarmoqlar, konnotatsiyalar, emotsional yuklama, tasviriy qatlamlar** boʻyicha avtomatik tahlil qilish usullarini ishlab chiqdilar⁴. Bunda NLP (Natural Language Processing), LSA (Latent Semantic Analysis), sentiment analysis kabi ilgʻor metodlar qoʻllanilmoqda.

Sheʼriy matnni leksik-semantik tahliliga oid nazariy va kognitiv yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlar talaygina. Oʻtgan asrning oxiri va asrimiz boshlarida lingvopoetika muammolari tadqiqiga bagʻishlangan qator dissertatsiyalar yoqlandi, monografiyalar eʼlon qilindi. I.Mirzayevning «Sheʼriy matnni lingvopoetik talqin qilish muammolari» nomli doktorlik dissertatsiyalari, G.Muhammadjonovanning “80-yillar oxiri 90-yillar boshlari oʻzbek sheʼriyatining lingvopoetik tadqiqi”, S.Maqsumovanning “E.Vohidov asarlarida konnotativlikning ifodalanishi”, A.Shofqorovning “Mirtemir sheʼriyatida takrorning maʼnoviy-uslubiy xususiyatlari”, D.Shodiyevaning «Muhammad Yusuf sheʼriyati lingvopoetikasi» nomli nomzodlik dissertatsiyalari, M.Muhiddinov va S.Karimovlarning “Gʻafur Gʻulomning poetik mahorati”, B.Choriyevning “Gʻafur Gʻulom poeziyasining leksik-semantik xususiyatlari” kabi monografiyalari shular jumlasidandir⁵.

¹Yoʻldoshev M, Isaqov Z, Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. -Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. B.-30

² V. Shklovsky, Russian Formalist Criticism: Four Essays, -Linclon: Nebraska University Press, 1995.


³ Jakobson R. “Linguistics and Poetics.” In *Style in Language*, MIT Press, 1960 // Riffaterre M. *Semiotics of Poetry*. Indiana University Press, 1978 // Leech G. *A Linguistic Guide to English Poetry*. Longman, 1969// Halliday M.A.K. *An Introduction to Functional Grammar*. Edward Arnold, 1985.

⁴ Goodarzi Z. Semantic Ordering of Lexical Choices in Poetry: Implications for Literary Translation. PALA Proceedings. 2010// Fang A.C, Lo F, Chinn C.K. Adapting NLP and Corpus Analysis Techniques to Structured Imagery Analysis in Classical Chinese Poetry. ACL Workshop. 2009// Jacobs A.M. The Gutenberg English Poetry Corpus: Exemplary Quantitative Narrative Analyses. *Frontiers in Digital Humanities*. 2018.// Брановский С.П. Лексикографическое описание поэтической системы Бориса Рыжого: квантитативный аспект. Канд. филол. наук (PhD) дисс. автореф. – Калининград, 2024

⁵ Mirzayev I. Sheʼriy matnni lingvopoetik talqin qilish muammolari. Filol. fan. d-ri (DSc)...diss.- Toshkent, 2010// Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri – 90-yillar boshlaridagi oʻzbek sheʼriyatining lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. nomz. (PhD) diss. –Toshkent, 2004 // Maqsumova S. E.Vohidov asarlarida konnotativlikning ifodalanishi. Filol. fan. nomz. (PhD) diss.-Toshkent, 2012 // Shofqorov A. Mirtemir

Zamonaviy o'zbek she'riyatining rivojiga munosib hissa qo'shgan shoir Rauf Parfi o'zbek xalqining bugungi kunda unutilib borayotgan qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'alarini yuksak insoniy tuyg'ularini milliy-ma'naviy, madaniy kelib chiqishini, xarakterini ravon usulda o'z she'rlarida aks ettirgan. O'zbek tilining imkoniyatlari, ma'no taraqqiyoti, o'z ma'nosidan tashqari yondosh ma'nolari uning she'rlarida fikr, tuyg'u, munosabat va kayfiyat, verbal vositalar orqali ifodalanadi. Rauf Parfi ijodi, she'rlari adabiyotshunoslik yo'nalishida, shu bilan birga tilshunoslik yo'nalishida ham bir qator izlanishlar obyekti bo'lib kelmoqda. Shoir ijodi tilshunoslikning badiiy matn tahlili, lingvopoetika nuqtayi nazaridan turli aspektlarda o'rganib chiqilgan. Jumladan, **M.Dedaxonov**ning *“Modern she'riyatda ma'no ko'chishining lingvokognitiv aspekti (Rauf Parfi ijodi misolida)”* nomzodlik dissertatsiyasi, **S.Muminov va X.Gopirova** hammuallifligidagi *“Rauf Parfi she'riyatining lingvopoetikasi”*, R.Saidova hamda G'.Murodovlar hammuallifligidagi *“Badiiy matnda belgi munosabati”* monografiyasi shular jumlasidandir⁶.

Olib borilayotgan tadqiqot ishida leksik-semantik tahlilning yangi bosqichi korpus lingvistikasi, hisoblash modellari orqali o'rganish maqsad qilib olingan. Bu yondashuv orqali **poetik tilning strukturasi** modellashtiriladi va **muallif uslubi** raqamli mezonlar orqali tavsiflanadi.



1-rasm. Rauf Parfi asarlari konkordansi

Bunda shoirning faqat o'zigagina xos bo'lgan til va uslub xususiyatlari, lug'aviy tarkib boyligi, shakl va mazmun muvofiqligi aniqlashtiriladi.

she'riyatida takrorning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari. Filol. fan. nomz. (PhD) diss. avtoref. -Toshkent, 2012 // Shodiyeva D. Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi. Filol. fan. nomz. (PhD) diss.-Toshkent.2007 // Muhiddinov M., Karimov S. G'afur G'ulomning poetik mahorati. -Toshkent: 2012// Choriyev B. G'afur G'ulom poeziyasining leksik-semantik xususiyatlari. -Toshkent: Voris nashriyoti. 2007

⁶ Dedaxonova M. Modern she'riyatda ma'no ko'chishining lingvokognitiv aspekti (Rauf Parfi ijodi misolida). Filol. fan. nomz. (PhD) diss. –Toshkent, 2021// Muminov S, Gopirova X. Rauf Parfi she'riyatining lingvopoetikasi. –Farg'ona, 2022// Saidova R, Murodov G'.Badiiy matnda belgi munosabati. -Toshkent, 2019

Tadqiqot uchun yaratilayotgan web sahifa orqali qidiruv tizimi tashkil etilgan. Bunda ijodkor asarlari bo'yicha umumiy natija va har bir janr bo'yicha alohida natija ko'rsatiladi. "Izlash" tugmasi oldidan o'rganilayotgan so'z maydonga kiritilib, natijani ko'rish tugmasi bosilgan vaqtda tahlil maydonida ikkita statistik natija paydo bo'ladi:

- qidiruv natijasi sifatida topilgan, o'rganilayotgan so'z ishtirok etgan abzaslar soni;
- o'rganilayotgan so'z, ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan matnlarda ishtirok etgan miqdori (1-rasmga qarang).

Bunda so'rov umumiy ko'rinishda ham, xususiy ya'ni har bir janr tarkibi ko'rinishida ham natija beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bunday konkordans lug'atlar ishonchli dalil yaratadi va leksikografiyaning an'anaviy yondashuvlariga qaraganda ko'proq ma'lumotni saqlashga imkon beradi. Konkordans materiallari matndagi paradigmatic aloqalarni kuzatib borish, muallif ijodining turli qismlari so'zlashuv vaqtlarini ko'rish va miqdoriy baholash imkonini yaratadi. Konkordans-lug'at lingvistik va adabiy tadqiqotlar uchun zamonaviy va samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahnese D.A, Lino M.L. Lexical Patterns and Cohesiveness of Selected Poems: Bases for Deriving Themes // International Journal of Languages, Literature and Linguistics. 2017. Vol.3. № 3. P.198–202.
2. Yeibo E. Patterns of Lexical Choices and Stylistic Function in J.P. Clark-Bekederemo's Poetry // International Journal of English and Literature. 2011. Vol.1. № 1. P.1–8.
3. Брановский С.П. Лексикографическое описание поэтической системы Бориса Рыжего: квантитативный аспект. Канд. филол. наук (PhD) дисс. автореф. – Калининград, 2024
4. Yo'ldoshev M, Isaqov Z, Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. -Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
5. Asadov T.N. Matn tilshunosligi. -Buxoro: Durdona, 2023
6. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri – 90-yillar boshlaridagi o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. nomz. (PhD) diss–Toshkent, 2004
7. Muminov S, Gopirova X. Rauf Parfi she'riyatining lingvopoetikasi. –Farg'ona, 2022